

**YURIDIK SHAXSLARNING SOLIQ QARZDORLIGINING  
NAZARIY ASOSLARI**

**Rizaeva Laylo Patxulla qizi**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

---

**MAQOLA  
MALUMOTI**

---

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 19.08.2025*

*Revised: 20.08.2025*

*Accepted: 21.08.2025*

**KALIT SO'ZLAR:**

---

*soliq, yuridik shaxs,  
soliq qarzdorligi, foyda  
solig'i, soliq islohotlari,  
qo'shilgan qiymat  
solig'i, soliq imtiyozlari.*

**ANNOTATSIYA:**

*Ushbu maqolada soliqlarning tarixiy ildizlari, ularning davlat moliyasidagi o'rni va iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli keng yoritilgan. Soliqlar avval faqat davlat daromadlarining manbai sifatida qaralgan bo'lsa, hozirgi kunda ular mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim vositaga aylangan. Maqolada soliq ma'murchiligi tushunchasi, uning mazmuni, funksiyalari, soliq qarzining yuzaga kelish sabablari va uni kamaytirish yo'llari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, soliq qarzi va boqimanda tushunchalarining mohiyati, huquqiy va iqtisodiy asoslari, soliq organlari va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida undirilishi masalalari ko'rib chiqilgan. Soliq siyosatini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali soliq yig'iluvchanligini oshirish zarurligi ta'kidlangan.*

Davlatchilik paydo bo'lgan ilk davrlarda soliqlardan faqatgina davlat daromadlarini shakllantirishning muhim va doimiy manbai sifatida foydalanilgan bo'lsa, hozirga kelib soliqlar iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy unsuri bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Soliqlar bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning o'z funksiyalarini amalga oshirishda

asosiy vosita bo‘lib hisoblanadi. Soliqlarning o‘z vaqtida va to‘la hajmda undirilishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini hamda mudofaa qudratining oshishini ta’minlaydi.

Shuningdek, budgetga hisoblangan soliqlarning o‘z vaqtida to‘liq undirilishi respublika va mahalliy hokimiyat organlari zimmasidagi ichki va tashqi majburiyatlarning bajarilishi da muhim ahamiyatga egadir.

Soliq to‘lovchilarni soliq madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida oxirgi vaqtarda soliq organini insofli soliq to‘lovchining ishonchli hamkoriga aylantirishga oid qator meyoriy hujjatlar qabul qilinmoqda va shu bilan birga qoidabuzarlik holatlarni bartaraf etishdan oldin uni kelib chiqishini oldini olishga qaratilgan hamkorlikni kuchaytirish zarurdir.

Jahon iqtisodiy rivojlanishida soliq sohasida turli xil fikrlar mavjud bo‘lishi bilan birga, soliq ma’murchiligi va uni talqin etish xususida ham turli xil fikrlar mavjud. Iqtisodiy adabiyotlarda soliq ma’murchiligining mohiyatini anglash bo‘yicha bir-biridan farqlanuvchi qarashlar mavjud. Masalan, ingliz olimasi O.Noginaning fikriga ko‘ra, soliq ma’murchiligi soliqlarni undirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar majmuidir. Boshqa bir guruh iqtisodchilar, xususan amerikalik olim A.Teyt soliq ma’murchiligini barcha soliqlarni minimal xarajat qilib maksimal darajada yig‘ib olishga qaratilgan tadbirlarning yig‘indisi sifatida qaraydilar.

Ayrim mutaxassislar soliq ma’murchiligining ko‘rinishlaridan biri soliq organlarining huquqiy munosabatlari bilan bog‘liq faoliyatidir - deb hisoblaydilar. Umuman olganda, soliq ma’murchilagini soliq sohasida o‘ziga xos boshqarish mexanizmi sifatida ham qarash mumkin. Shu sababli, soliq ma’murchiligining muhim elementlaridan biri soliq nazorati hisoblanadi. O‘z navbatida soliq nazorati soliqlar va yig‘imlarni budgetga o‘z vaqtida va to‘liq tushishini nazorat qilishni anglatadi.

Soliqlarni undirish – eng qadimgi vazifalardan va davlatchilik mavjudligining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Soliqlar ta’lim, kam ta’milanganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, huquq-tartibotni saqlash, mudofaa salohiyatini ta‘milash, infratuzilmani yaratish va rivojlantirishni moliyalashtirishning iqtisodiy manbasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston davlatchiligining tarkib topishi sharoitida soliqlarni undirishning ahamiyati nihoyatda yuqori bo‘ldi – yosh mustaqil davlatning aynan shunga bog‘liq bo‘lib qolgan edi.

Mamlakatda davlat qurilishi, mustaqil iqtisodiy va ijtimoiy siyosat olib borilishi, o‘z mustaqilligini mustahkamlash uchun mablag‘ kerak edi. Bu o‘rinda o‘z-o‘ziga tayanishga to‘g‘ri kelgan, 70 yildan ortiq hukmronlik qilgan sobiq ittifoq davlatining budget mablag‘larini shakllantirish va taqsimlash tizimi qulagan edi. Moliyaviy zaxiralarga bo‘lgan

ehtiyojni milliy manbalar hisobidan ta'minlash zarur bo'lgan. Ma'muriy-rejali boshqaruv sharoitida hozirgiga o'xshash soliq tizimi mavjud bo'lman. Ma'muriy-rejali boshqaruv sharoitida hozirgiga o'xshash soliq tizimi mavjud bo'lman.

Sobiq tuzum davlat xo'jalik faoliyatini boshqarishning soliq dastaklariga muhtojlik sezmagan. U barcha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar ish haqi, ishlab chiqarish hajmlari, narx - navo, foyda darajasini qat'iy nazorat ostiga olgan edi. Tarmoqlar va korxonalar bo'yicha o'rnatilgan majburiy to'lovlar xo'jalik mexanizmining markazlashtirilgan tizimiga biriktirilgan va maxsus vazifalarni bajarib kelgan edi.

Soliq qonunchiligidan bo'yicha soliqlarni to'lash majburiyatini bajarmaslik soliq qarzini keltirib chiqaradi. Umumiy jihatdan olib qaralsa, soliqlar paydo bo'lishi bilanoq, soliq qarzini undirish muammosi ham paydo bo'lgan. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra, soliq to'lovchilarining soliqlar va soliq qarzini bir xil mazmunda tushunishi chalkashliklarni yuzaga keltirib chiqaradi. Hech bir sud organi yoki soliq organi soliqlarni undirmaydi yoki olib qo'yaydi. Faqatgina boqimanda (soliq qarzi) yoki penya jarimalar undiriladi xolos. Har kimning huquqiy ongiga buning umumiy jihatdan farqini, ya'ni soliqlar to'lanadi, boqimanda (soliq qarzi) undiriladi degan tushunchani singdirish lozim. Hattoki, boqimanda ham undirilmay, balki ixtiyoriy ravishda to'lanishi mumkin. Aynan shu xulosa nafaqat qonunchilikda belgilab qo'yilsa, balki fuqarolarning huquqiy ongida ham aks etsagina, so liq to'lovchilar uchun soliqlar "erkinlik" belgisi sifatida namoyon bo'ladi (Solovev V.A. O pravovoy priode nologa. // «Jurnal rossiyskogo prava», № 3, 2002. 76 s.).

Soliq qarzi tushunchasiga iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan berilgan ta'riflariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Xususan, A.Tangirqulov va boshqalarning fikriga ko'ra, soliq qarzi – soliq qonunchiligidan belgilangan muddatlarda va to'liq to'lanmagan soliq va majburiy to'lovlar summalaridir (Tangirqulov A. va boshqalar. Soliq va majburiy to'lovlardan qarzdorlikni kamaytirish. O'quv qo'llanma. – T.: "Yangi asr avlod" nashriyoti. 2010. B.6.).

Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda mualliflar soliq qarzini "umumiy boqimanda (nedoimka) sifatida qarasa, boshqalar soliqlardan kreditor qarzdorlik deya ta'riflashadi. Uchinchi toifa mualliflar esa soliq qarzini, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorlik bilan birga hisoblashadi. Bundan tashqari, yuridik shaxsning soliq qarzi bu – yuridik shaxs tan olgan yoki sud tomonidan qaror chiqarilgan, qonunchilikda belgilangan muddatlarda to'lanmagan va muddatida to'lanmaganligi uchun hisoblanib to'lanmagan penya va jarimalar hisobi qo'shilgan summaga aytildi" degan fikrlar ham mavjud.

Hozirgi kunda boqimanda (nedoimka) so'zi "birovning qaramog'ida, boqimida (bo'lmoq)" ma'nosida ishlatilmoqda. Shu sababli soliq qonunchiligidan chiqarib tashlangan.

Asli arabcha (boqiy) va forscha (monda) unsurlaridan iborat bu so‘z “eski qarz, undirilmagan soliq” ma’nosida bo‘lib, o‘zbekcha boq (moq) so‘ziga aloqasi yo‘q (Qoraev S. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi. 2006 yil, 3-soni.).

Yuridik shaxs tomonidan qaralsa, iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra soliq qarzdorligiga – hisoblanib to‘lanmay qolgan soliqlar va majburiy to‘lovlarning barcha summasi kiradi. Chunki, yuridik shaxs o‘z moliyaviy xo‘jalik faoliyatini buxgalteriya hisobiga asosan yuritadi. Buxgalteriya hisobida soliqlar bo‘yicha hisoblarda qachon soliq hisoblanib to‘lanmay tursa, shu soliq qarzdorligi hisoblanadi. Muddatida to‘lanmaganligi uchun penya (ustama jarima) yoki boshqa moliyaviy sanksiya summalari soliq qarzini hisobga oluvchi hisobda aks ettirilsada, lekin davr xarajatlarida muddatida to‘lanmagan penya, neustoyka va jarimalar sifatida hisobga olinib, yuridik shaxsning to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarariga boradi.

Soliq qarzi tushunchasini o‘rganishda eng avvalo qarz tushunchasi mohiyatini anglab etish kerak. Xalqimizda shunday bir ibora borki, “Qarz – ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan narsa hamda biror kimsaning zimmasidagi vazifa, majburiyat, burch” hisoblanadi.

Umuman olganda qarz – bu majburiyatdir. Qarzdorlik esa qarzlarning yig‘indisi yoki bo‘lmasa majburiyatlar yig‘indisi hisoblanadi. Qarzdorlik tushunchasi zamirida yotgan majburiyatning bajarilmasligi esa shubhasiz javobgarlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli ham soliq qarzi soliq majburiyati bilan bevosita bog‘liq.

Haqiqatdan ham iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, jarima va moliyaviy sanksiyalar jazo turi hisoblanadi. Chunki ushbu jarima yoki moliyaviy sanksiyaning yuzaga kelishiga sababchi, yuridik shaxs emas balki, yuridik shaxsning soliq qonunchiligini buzgan ma’lum bir mas’ul jismoniy shaxslaridir. Qonunchilikda bu penya va moliyaviy sanksiyalar yuridik shaxs qarzi sifatida hisobga olib kelinmoqda.

Mustaqillik qo‘lga kiritilishi bilan o‘z soliq tizimimizni shakllantirish ishlari boshlandi. “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasida “Respublika hududida olinadigan soliqlar va yig‘imlar O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga va mahalliy budgetlarga tushishi” belgilangan.

O‘zbekiston mustaqilikka erishganidan so‘ng juda qisqa davr ichida ikkita vazifani birdaniga bajarishga to‘g‘ri kelgan. Birinchidan navqiron davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlariga mos keluvchi soliq tizimini shakllantirish, shuningdek, huquqiy iqtisodiy va siyosiy sharoitlarga mos keluvchi soliq tizimini shakllantirish hamda zarur huquqiy hujjatlarni qabul qilish. Ikkinchidan, soliq ma’murchiligining tegishli tizimini

yaratish.

Mustaqil O'zbekistonning sal kam o'ttiz yillik ildam rivojlanishi soliq tizimi davr sinovlaridan muvaffaqiyatlari o'ta olganligini ko'rsatadi.

Mustaqil davlatni tarkib toptirish va rivojlantirishning barcha bosqichlarida soliq tizimi budjetga zarur mablag'larning kelib tushishi, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning ta'minlanishi bo'yicha oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyat bilan hal qilib kelgan. Milliy soliq tizimining rivojlanishida uchta asosiy bosqichni ajratib ko'rsatsa bo'ladi. Soliqlarning paydo bo'lishi bilan har doim soliq qarzlarini hosil qilinishiga, ya'ni qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan pul mablag'lari to'liq olinmasligida ifod alangan.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda soliq tizimi shakllandi, O'zbekiston Respublikasida soliq sohasidagi qonunchilik va meyoriy hujjatlar tizimlashtirilib, Soliq kodeksi qabul qilindi, soliqlarni boshqarishning zamonaviy metodlari va mexanizmlari joriy etildi, soliq organlari va soliq nazoratining yaxlit tizimi yaratildi.

Shu sababli soliq qarzlarini bartaraf etish yo'llarini takomillashtirishga e'tibor berish - davlat soliq xizmati organlarining muhim vazifasi sifatida belgilab qo'yilgan.

Soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va to'liq undirilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qulay shart-sharoit yaratish hamda ular manfaatini qonuniy himoya qilish uchun ham xizmat qiladi.

Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2018 y. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).):

iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtaсидаги soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, davlat budgeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;

soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishini ta’minlash, shu jumladan kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;

soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan, soliq solish ob’ektlari hamda soliq to‘lovchilarni yanada to‘liq qamrab olish va hisobini ta’minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog‘liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etishdan iboratdir.

Yuqorida qayd etilgan yo‘nalishlar soliqlar va yig‘imlarning ma’muriyatichiligi mexanizmlarining soddalashtirish oqibatida ularni yig‘iluvchanlik darajasini oshirishga qaratilgan. Soliq yig‘iluvchanlik tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ma’lum bir muddat davomida hisoblangan soliqlarni o‘z vaqtida to‘liq to‘lanishi tushuniladi.

### **Foydalilanlgan adabiyotlar**

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomisheskix resheniy./usheb./ O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of sorporate finanse. MsGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and esonomis modeling of the system of interregional industrial sooperation as a sontrol objest. Proseedings of the 7th International Sonferense on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of sesurity of esonomis and esologisal systems in the sountries of the sentral Asian Region. International Sonferense on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsyu ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogisheskie texnologii. 2025.– s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rink Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomisheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy

turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.

10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o ‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.

11. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.

12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.

13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.

14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.

15. Publis Finanse: A Sontemporary Applisation of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning

16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati.– T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.